

Kuzning rang-barang ohanglari



1. Tasviriy san'atning qaysi janrida tabiat asosiy mavzu sanaladi?
2. Ijodini manzara (peyzaj) tasviriga bag'ishlagan rassomlardan kimlarni bilasiz?



Isaak Ilich Levitan – XIX asrning mashhur peyzaj rangtasviri asoschilaridan biri. Levitan hayoti davomida bebafo peyzaj namunalari bo'lgan minglab rasmlar va eskizlarni chizgan.


Uning mashhur "Oltin kuz" kartinasi Moskvadagi eng katta san'at muzeyi – Tretyakov galereyasining durdonasi hisoblanadi.



I. Levitan "Oltin kuz"



1. Kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
2. Quyidagi rasmlarni ko'rib chiqing. Rassomlar qaysi ranglarning uyg'unligidan foydalanishgan?
3. Peyzaj rassomlari kuzni tasvirlashda qaysi ranglardan foydalanganlar?
4. Bu rasmlar sizda qanday hislarni uyg'otdi?



I. Ostroukhov "Oltin kuz"



S. Jukovskiy "Kuz. Ayvon"



Kuz sizga nimasi bilan yoqadi?
Buyuk bastakorlarning kuzga bag'ishlangan
musiqiy asarlarini tinglab, kuz manzarasini
chizing.



A. Vivaldi,
"Kuz"



P.I. Chaykovskiy,
"Kuz"

7



8



9

Kuz manzaralari

